

**ODIL YOQUBOVNING "ULUG'BEK XAZINASI" ROMANIDA
TUSH MOTIVI**

Salimova Rayxona Burxon qizi

*Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o'qitish
(o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi
e-mail: salimovarayxona00@gmail.com*

Annotation: Ushbu maqolada tush tasviri berilgan ba'zi o'zbek adabiyoti namunalariga murojaat qilindi, yuqoridaq romanda tush tasviriga atroflicha to'xtalinib, tushning qahramonlar taqdirini o'zgartirishidagi roli tahlillar vositasi orqali yoritildi.

Abstract: This article refers to some examples of Uzbek literature that depict dreams; in the above-mentioned novel, the depiction of dreams is analyzed in detail, highlighting their role in changing the fate of the characters through various analytical approaches.

Kalit so'zlar: Tush motivi, romantizm, ogohlantirish, bashorat, ramziy ifoda

Key words: dream motif, romanticism, warning, prophecy, symbolic expression

Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'l mish dostonlarda, ko'plab badiiy asarlarda tush motividan keng foydalaniladi. Tush tasviri haqida professor H.Umurov quyidagicha fikr yuritadi: "Badiiy adabiyotdagi tushning bu shakli keyinchalik ham davom etadi. Faqat romantizmga kelib, uning vazifasi o'zgaradi: u qahramonlar ichki dunyosini, ularning nozik kechinmalarini ochish masadida ishlatila boshlandi. Tush syujetning oldingi voqealari bilan emas, qahramonning oldingi emotsiyon holati bilan bog'lanadi".

Tush motivi muallifning badiiy niyatiga xizmat qiladi. Shunday asarlar borki, tush ko'rgan qahramonning hayoti tahliko ostida qolmaydi, syujet asasiy oqimi o'zgarmaydi (O'. Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

"Tush" novellasi), ammo ba'zi asarlarda muallif tush orqali biror falokatni avvaldan kitobxonga belgi sifatida bildiradi. Shu tushdan so'ng, ko'pincha, syujet asosiy oqimi o'zgarib ketadi (P. Qodirovning "Yulduzli tunlar", O. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanini va h.k.).

O. Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida ham muallif tush motivi orqali qahramonlar hayotida yuz berajak ko'ngilsiz voqealarga ishora qiladi, tush bamisli, ogohlantirish bo'lib yangraydi.

Qarnoqni Dashti Qipchoq xoni Baroqxon talon-taroj qilishidan avval Mirzo Ulug'bek quyidagicha tush ko'radi: U nosuyukli xotini O'g'abegimdan qochib, piri Yassaviy maqbarasi uzra ochayotganda bobosi Amir Temurning: "Sulton Muhammad Tarag'ay! Men seni Movarounnahr taxtiga o'tqazganimda umidim shu edimi? Ana, pastga qara! Quzg'un Baroqxon suvoriylari shaharni zabit etib, bu muqaddas dargohni xor qilur! Movarounnahr o't ichida qoldi. Sen esa bu orsiz xotining birlan bu mozor ustida besharmi-hayo o'ynashib yurasen!... Yo bu badxohlarni sarhadimdan daf etasen, yo tojimni qaytarib berasen!", degan xitobi yangraydi. Shu kun tongda Mirzo Ulug'bek huzuriga o'n nafar yigit Baroqxondan arz qilib, yordam so'rab keladi.

Xuddi shunday bo'lajak voqea-hodisalar qahramonlarning hayotida yuz berajak ko'ngilsiz veqealarga ishora qiluvchi tushni Mirzo Abdullatif ham ko'radi: Go'yo u Ko'ksaroyda, haramxonaga yondosh o'rdaday keng muhtasham xonada katta bazmi jamshid qurayotgan emish... To'satdan eshikdan amir Sulton Jondor tarxon kirib, sajdaga bosh egarmish. Shahzoda amir Jondorni ko'rib, o'rnidan turib ketarmishu:

-Ushlanglar bu fitnachini! deb baqirarmish. Shunda ami Jondor bunga parvo qilmay shahzodaga yuzlanib yana ta'zim qilarmish:

-Pushtipanohim! Faqir fitna-fasoddan yiroq sadoqati zohir qulingizdurmen! -dermish.

Shunda amir shahzoda uchun tag'larda yurib kiyik ovlaganini aytarmish-u, eshikdan kimnidir imlab chaqirarmish. Xonaga dasturxon yopilgan katta oltin barkash ko'tarib, notanish bir navkar kirib kelarmish. Shahzoda barkashni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

olib,dasturxонни ocharmish,oltin barkashda...qonga bo'yalgan uning o'z boshi tirjayib yotarmish!..

Mirzo Abdullatif shu tushni ko'rgan kuniyoq amir Sulton Jondor boshliq bir guruh fitnachilarining qo'lida halok bo'ladi.O'limi oldidan shahzodaning miyasiga quyidagi fikrlar urila boshladi:"Niqoblarni yulib olgan bu ikki suvoriyning biri...amir Sulton Jondor edi.Ikkinchisi...Yo Rab!Xuddi tushida barkash ko'tarib kirgan navbarga o'xshagan bu ikkinchi suvoriy...ko'pdan beri fitna qo'zg'ab qochib yurgan Bobo Husayn Bahodir edi!..."

E'tiborli tomoni har ikkala tush motivi ham syujet asosiy oqimini o'zgartirgan,bo'lajak xavf-xatardan asar qahramonlarini,kitobxonlarni qaysidir ma'noda ogohlantirgan.

Xulosa qilib aytganda,Tush motivi orqali adib qahramonlarning ichki dunyosini,ongosti kechinmalarini tasvirlaydi.Tush syujetda voqealarning ramziy ifodasi,bashorat va oglantirish vazifasini bajaradi,shu orqali asarning badiiy-estetik qiymatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Umurov Hotam.Badiiy ijod mo'jizalari.Zarafshon,Samarqand-1992.
- 2.Umurov Hotam.Adabiyotshunoslik nazariyasi.A.Qodiriy,Toshkent-2004.
- 3.Quronov D.Adabiyot nazariyasi asoslari.Noshir, Toshkent- 2019.
- 4.<https://kh-davron.uz>.
- 5.<https://tafakkur.net>.
- 6.Quronov Dilmurod.Adabiyot nazariyasi asoslari.Navoiy universiteti,Toshkent-2018.
- 7.Yoqubov Odil.Ulug'bek xazinasi.Nadirabegim,Toshkent.